

## BIR HIKOYA TAHLILIGA DOIR

*Mohinur Sherboyeva,  
Qoraqalpoq davlat universiteti,  
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotasiya:** mazkur maqolada bugungi o'zbek nasrida o'ziga xos uslub va yo'nalish ohangiga ega bo'lgan yozuvchi Isajon Sultonning badiiy ijodiy mahorati, hikoyanavislikdagi tajribasi, ijodida qadimgi va yangi davr kishisi obrazini yaratishda an'anaviylik bilan o'ziga xos ijodiy individuallika intilish kabi qator masalalar adib qalamiga mansub "Ismsiz qahramon" hikoyasi misolida tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** invidiullik, hikoya, hikoyanavis, qahramon, obraz, epizod, xarakter, obrazlilik, voqelik

**Аннотация:** в данной статье писатель Исаджон Султан, обладающий уникальным стилем и режиссурой в современной узбекской прозе, поднимает ряд вопросов, таких как художественно-творческое мастерство, опыт повествования, традиционализм и стремление к неповторимой творческой индивидуальности в творчестве. на примере его рассказа анализировался образ человека старого и нового времени в его творчестве.

**Ключевые слова:** индивидуальность, рассказ, рассказчик, персонаж, образ, эпизод, характер, сюжет, образность, реальность

**Annotation:** in this article, the writer Isajon Sultan, who has a unique style and tone of direction in today's Uzbek prose, has a number of issues such as artistic creative skills, experience in storytelling, traditionalism and the pursuit of unique creative individuality in creating the image of a person of the old and new times in his work. was analyzed on the example of his story.

**Key words:** individuality, story, storyteller, character, image, episode, character, plot, imagery, reality.

Badiiy asar insoniyat tarixining qaysi qatlamida tasvirlanmasin, unda, birinchi navbatda inson obrazini, uning o'y-xayollari, ruhiyati yoritishi lozim. Hikoyachilik badiiy adabiyotning eng sermahsul, ilg'or hamda tezkor janri sanaladi. Kichik janrining badiiy takomiliga xos belgilaridan biri, yozuvchilarning faqat o'zlarigagina xos bo'lgan jo'shqinlik, ijodiy erkinlik tufayli o'zgacha ko'rinishdagi, yangi, zamonaviy tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiy olamiga olib kiradi va uni gavdalantirib beradi. Bugungi kun o'zbek nasrida va ayniqsa, hikoyanavislik borasida bir qator yozuvchilar qatorida Isajon Sulton ham o'z uslubi va yo'nalishi bilan alohida ajralib turadi.

Isajon Sultonning "Ismsiz qahramon" hikoyasida qadimgi IV asrning boshida

bo‘lib o‘tgan voqea aks ettirilgan. “To‘rtinchi asrning boshida ot yilida xanzu sulolasining ashorlari va xunlari yana to‘qnashdilar. Bunga xanzularning xun yerlariga o‘qtin-o‘qtin hujum qilganlari va cho‘ponlarning ba‘zilarini o‘ldirib mol-holini talon-taroj qilganlari sabab bo‘ldi”. Xanzular- Tyanshan etaklarida yashagan va xunlar bilan uzoq yillar davomida urush qilib kelgan qabila nomi. Xunlar – bugungi turkiy xalqlarning qadimiy ajdodlari. Hikoyaning boshidayoq xalqning qiyin ahvolda tushganligi anglashiladi: “Askar zaif, otlar och edi. Boisi qishning g‘oyatda sovuq va yog‘inli kelgani, to‘plangan oziqning bahorga yetmay tugagani edi”.

Hikoyadagi ayni mana shu holat orqasidan xalqning qanday qiyinchiliklarga dosh bergani ko‘rsatiladi. Urush olti kun loy va balchiqda bo‘lib o‘tgan oltinchi kun yomg‘ir yog‘ib xanzularni harakatsizlantirib qo‘yganligi keltiriladi. Xanzular aslida xunlarga nisbatan ancha ko‘p bo‘lsa-da urush yakunida mag‘lub bo‘ladi. Xunlarning askarlari kam bo‘lsada ular vatani uchun jonini fido qilishga tayyor edi. “Yomg‘irni o‘q deb o‘yladingizmi hali haqiqiy yomg‘irni endi ko‘rasiz”. Mana shu birgina jumla orqali xunlar xanzularni yetganini anglash qiyin emas. Voqealar rivojida yana shu narsa anglashiladiki, mana shu shunday og‘ir, qiyin ahvolda jang bo‘layotganiga qaramay xanzularning yaltir-yultur matolardan kiyim kiyib, o‘zlariga shu qadar oro bergani peyzaj orqali ko‘rsatib beriladi: **“Tushdan so‘ng siyrak tuman orasidan sarmg‘imtir dog‘day bo‘lib quyosh ko‘rinadi”**. Ya‘ni mana shu qonli urushda xanzularning yaltir-yultur kiyinib kelishi, siyrak tuman orasidan sarmg‘imtir dog‘day quyoshning chiqib kelishiga o‘xshatiladi. Keyin xanzulardan bir devqomat xanzu, xunlardan esa “Mitti” laqabini olgan jangchi birgalikda jangga tushishadilar. Ayni mana shu jang maydonida Mittining qanday qahramonligi ayon bo‘ladi. Ya‘ni uni yelkasiga o‘q tegib yiqilib qolishiga qaramay, aksincha tik turib oldingidanda kuchliroq bo‘lib xanzuni yengadi. Bu bilan ham cheklanib qolmay, qolgan xanzular bilan ham jang qilishga tushadi va bir qancha o‘qlar unga tegishiga qaramasdan, taslim bo‘lmaydi, mardonavor turib jang qiladi.

“Mittining yelkasiga, beliga o‘qlar sanchilib qoldi, lekin bu o‘qlar Mittiga ari chaqqanchalik ta‘sir qilmaganga o‘xshardi, u quyundek bo‘lib xanzu askarlarining bir nechasini ag‘dardi, qolganlari esa pala-partish qocha boshladilar”. Bu voqeadan Mittining birgina emas, balki bir nechta xarakterlari ko‘rsatib beriladi. Hikoyaning mana shu yerida Mittining o‘z xalqiga bo‘lgan fidoyiligini hamda dushmanlar oldida qanchadan qancha o‘qlarni otilishiga qaramasdan qaddini rostlab tik tuta olgani bu uning martligidan va xalqiga bo‘lgan muhabbatidan dalolatdir. Hamda yurtiga bo‘lgan fidoyilik va sodiqlik ham aks ettiriladi. Mittining xalqiga bo‘lgan eng birinchi fidoyiligi uning mol-hollarini hatto uyini sotib, uning puliga ot, qurol-yarog‘ sotib olib dushmanlarga qarshi jangga tushganidir. "Fidoyilik haqida so‘z ketar ekan prezident Shavkat Mirziyoyevning **"Katta imoratlar, zamonaviy texnikalar bilan maqtanish kerak emas. Aqlli, bilimli, fidoyi farzandlarni tarbiyalasak va ular Vatanga**

**xizmat qilsa eng katta boylik, baxt mana shu" deya aytgan soʻzlari aynan mana shu hikoyaga tegishlidir. Chunki yurtboshimiz aytganlaridek bizning baxtimiz boyligimiz fidoyi farzandlardir"** soʻzlari yaqqol bunga dalildir. Hikoya soʻnggida Mitti qahramonlarcha yurti uchun jon fido qilib vafot etdi va ismi boʻlmasada qahramon boʻlib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yozuvchi hikoyada personajni xarakter darajasiga koʻtarishni maqsad qiladi. Isajon Sultonning "Ismsiz qahramon" hikoyasida "Mitti" laqabini olgan "Ismsiz qahramon" xarakter darajasiga koʻtariladi. Yaʼni hech kimi yoʻq, oʻzi mitti boʻlishiga qaramasdan oʻzida koʻplab fazilatlarni jam qiladi. Mittining xanzular bilan jang qilish davomida unga xanzu bergan zarbalardan taslim boʻlib qolmagani, aksincha undanda qattiqroq harakati orqali xanzuni magʻlub etganini va xalqi uchun koʻksini qilichlarga va oʻqlarga tutsada yiqilmasdan oʻzini ari chaqqandek his qilishi, uning xalqiga boʻlgan fidoyiligidan dalolatdir. Demak, yozuvchi mazkur hikoyani boshqa hikoyalarga qaraganda noodatiy tarzda ifodalaganini, oʻzining badiiy mahorati qirralarini kashf etganligini anglash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isajon Sulton "Ismsiz qahramon" hikoyasi.
2. U. Normatov. Tafakkur yogʻdusi. T. Sharq. 2005.
3. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. Sharq. 2004.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. – T.: Akademya, 2013.
6. Qozoqboy Y., Mahliyo Y. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: 2016.